

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ASHUROVA DILDORA G'AFUROVNA

**INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI FANINI HAMKORLIK
STRATEGIYALARI ASOSIDA LOYIHALASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ashurova Dildora G'afurovna

Ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish.....5

Ашурова Дилдора Гафуровна

Совершенствование проектирования методики преподавания английского языка на основе стратегий сотрудничества21

Ashurova Dildora Gafurovna

Enhancing the design of English language teaching methodology based on collaborative strategies.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ASHUROVA DILDORA G‘AFUROVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI FANINI HAMKORLIK
STRATEGIYALARI ASOSIDA LOYIHALASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.PHD/Ped6311 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining buxdu.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Olimov Shirinboy Sharofovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Rashidova Feruza Musayevna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sodiqov Erkin Tursunovich
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart soat 09.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (825-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 20-fevraldagi 18-raqamli reyestr bayonnomasi)



N.B. Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B.Ro‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

Z.I. Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarda ta'lim va tarbiya strategiyasini ishlab chiqish, ta'lim mazmunini o'zlashtirish, o'qitish jarayonida hamkorlik strategiyalarni loyihalash va uni amalga oshirish muhim rol o'ynaydi. Jumladan, AQSH, Angliya, Rossiya, Germaniya, Hindiston va Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijiy tillarda o'z kasbiy sohalarida erkin muloqot yurita olish, ingliz tili o'quv fani ta'limida hamkorlik strategiyalarini hisobga olib o'qitish, talabalarning ingliz tilidan kommunikativ bilimlarini rivojlantirish, nutq ko'nikmalarini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida Minnesota (University of Minnesota), Albani (the University at Albany), Kembrij (University of Cambridge), Jorjiya (Georgia State University) va Jazoir universitetlari oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish muammolari, oliy ta'lim tizimida til o'rganish usul va strategiyalarini hisobga olib ularni takomillashtirish, Sankt-Peterburg davlat universiteti va Tomsk milliy ilmiy tadqiqot universitetlarida ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish usullari bo'yicha fanlararo bog'liqlik masalalarini yanada takomillashtirish, talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish asosida ingliz tilini o'rganish usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi alohida ahamiyatga molik. Hamkorlikda o'qitish nazariyasi va amaliyoti sohasida yetakchi ilmiy markazlardan biri bu Minnesota universitetining kooperativ o'qitish markazi bo'lib, u ushbu yo'nalishni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda jahon ta'limi sohasiga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lim tizimining shakllanish jarayoni kechmoqda. Ushbu jarayonlarning eng asosiysi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Bunda barcha ta'lim oluvchilar muloqot va hamkorlik qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhimligi ko'zda tutiladi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy til o'qitish standartlarini joriy etish, ingliz tili fani ta'limida hamkorlik strategiyalarini loyihalashga ta'lim mazmunini takomillashtirish, jumladan, uning shakl, metod, vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida" Farmonida belgilangan birlamchi strategik maqsadlardan biri: "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" yo'nalishi ta'lim sohasidagi islohotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga oid Farmonida, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan

vazifalar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, kasbiy iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek olimlari tomonidan hamkorlik pedagogikasining nazariy va amaliy jihatlarini turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Jumladan, Q.Q.Inoqov ta‘lim-tarbiya sifatini hamkorlik asosida takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. F.B.Muzafarova ta‘lim jarayonida faoliyatli yondashuvga tayangan holda hamkorlik strategiyalarini qo‘llash tizimini ishlab chiqqan. G.A.Abdullayeva esa, o‘quvchi yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik hamkorlikning baholash mexanizmlarini tadqiq etgan. N.G.Dilova ham o‘z tadqiqotida boshlang‘ich ta‘limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini o‘rganib, ularni takomillashtirish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini asoslagan. Shuningdek, uslubshunoslardan G.X.Boqiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, L.T.Axmedova, M.T.Irisqulov, F.M.Rashidova kabi olimlar ham mazkur masala tadqiqi bilan shug‘ullanishgan.

Hamkorlik pedagogikasini amaliyotga tatbiq etishda MDHning novator-pedagog olimlari ham muhim hissa qo‘shishgan. Xususan, S.N.Lisenkova, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, Y.N.Ilin, V.A.Karakovskiy, I.P.Ivanov va Sh.A.Amonashvililarning ilmiy-ijodiy faoliyatida o‘quv jarayonida hamkorlik strategiyalarini keng qo‘llashga qaratilgan samarali metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda xorijiy tillarni hamkorlikda o‘qitishning guruhviy shakllari imkoniyatlarini ochib berishga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, D.W.Jonson, R.T.Jonson, R.Slavin, D.D.Vries, K.Edwards, shuningdek, C.Freinet kabi olimlarning tadqiqotlarida hamkorlik pedagogikasining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, R.M.Gillies o‘quvchilar muloqoti va ijtimoiy ko‘nikmalarining rivojlanishini empirik asosda tadqiq qilishgan. A.Gartner va M.Kohler “tengdoshlar orqali o‘qitish” (“peer tutoring”) konsepsiyasini ishlab chiqishgan bo‘lsa, N.Vebb kichik guruhlarda o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro yordam va bilim almashuvini tahlil qilgan, S. Kagan esa, o‘zining mashhur “Kagan structures” metodlari orqali amaliy hamkorlik texnologiyalarini keng yoygan.

Tadqiqot muammosining pedagogika nazariyasi va amaliyotida yoritilishi, tadqiq qilinishi oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi orqali loyihalashning didaktik shart-sharoitlariga alohida e‘tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Ammo ingliz tili fanini o‘qitishda hamkorlik strategiyalarni loyihalash, uni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ilmiy-nazariy jihatdan asoslash kabi masalalar ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat pedagogika

institutining “2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “Ingliz tili o‘qituvchilari assotsiatsiyasini tashkil etish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy-pedagogik, falsafiy, psixologik, metodik adabiyotlar tahlili asosida ingliz tili fanini o‘qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish xususiyatlarini o‘rganish va amaliyotdagi holatini aniqlashtirish;

oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash mexanizmlarini takomillashtirish;

ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash orqali “Cooperative Learning Techniques” hamkorlik strategiyalarini loyihalash jarayonini takomillashtirish;

oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning samaradorlik darajasini tajriba yo‘li bilan aniqlashtirish, integral baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta‘lim jarayoniga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyektini ingliz tili o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish jarayoni tashkil etadi. (Tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat pedagogika instituti, Urganch davlat pedagogika instituti, Farg‘ona davlat universitetlaridan 540 nafar respondent qatnashdi.)

Tadqiqotning predmeti ingliz tili o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash, test, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash hamda pedagogik tajriba-sinov kabilardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, til o‘rganish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni xarakterlovchi omillar (nutq madaniyatini ifodalash, hamkorlik munosabatini maqsadli tarbiyalash, shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish) mexanizmlari takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanining pedagogik imkoniyatlari kommunikativ yondashuv, tilga bog‘liq fanlararo integratsiya va motivatsiyani aniqlashga mo‘ljallangan “Cooperative Learning Techniques” hamkorlik strategiyalarini loyihalash metodikasini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash muammoli ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashning samaradorlik darajasi aniqlashtirilgan hamda integral baholash mezonlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashga doir nazariy-metodik qarashlar va yondashuvlar belgilangan, ularning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy qilingan;

ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash jarayonida talabalarda kommunikatsiya va kalloboratsiya madaniyatini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari, shakllari, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari, "Cooperative Learning Techniques" elektron kontent yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quv-tarbiya jarayonida sinovdan o'tkazilgan va ijobiy natijalarga erishilgan, "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" nomli darslik yaratilgan va amalda joriy etilgan;

aniqlangan pedagogik sharoitlar oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash samaradorligini oshirishga va ingliz tili fanini muvaffaqiyatli o'rganishga ta'sir ko'rsatadi hamda chop etilgan amaliy ishlari talabalarning hamkorlikda ishlash madaniyatini rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, amaliyotda OTMLarda xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash tasnifi aniqlanganligi, uning samaradorligini ta'minlovchi omillar ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilinganligi, muammoning yechimi bo'yicha taklif qilingan texnologiyalar, ishlab chiqilgan samarali metod va vositalar, yaratilgan o'quv-metodik qo'llanma, o'quv-uslubiy ko'rsatmalardan oliy ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash bo'yicha olingan natijalar, ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar va umumpedagogik, metodik tavsiyalar oliy ta'lim muassasalari o'quv-usuliy ta'minotini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, til o'rganish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashga oid taklif va tavsiyalardan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan SUZ80024CA0088-raqamli "Eksport uchun til ko'prigi: tadbirkorlarning eksport salohiyatini rag'batlantirish uchun ingliz tili o'qituvchilari uyushmasini shakllantirish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat pedagogika institutining 2025-yil

8-fevraldagi 165-son ma'lumotnomasi). Natijada hamkorlik strategiyasi mazmunidagi nostandart topshiriqlar va o'quv loyihalar ishlab chiqish hamda amalda qo'llash imkonini bergan;

ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni xarakterlovchi omillar (nutq madaniyatini ifodalash, hamkorlik munosabatini maqsadli tarbiyalash, shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish) mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabridagi 333-son guvohnomasi). Natijada mazkur darslik asosida olib borilgan mashg'ulotlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning pedagogik va metodik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

ingliz tilini o'qitish metodikasi fanining pedagogik imkoniyatlari kommunikativ yondashuv, tilga bog'liq fanlararo integratsiya va motivatsiyani aniqlashga oid takliflar asosida "Cooperative Learning Techniques" nomli elektron darslik yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 19-martdagi № DGU 48769-son guvohnomasi). Natijada mazkur elektron darslik ingliz tilini o'qitishda hamkorlik va an'anaviylik tamoyilidan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning samaradorlik darajasi hamda integral baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar yaratilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 27-noyabrdagi 02/01-01-130-son ma'lumotnomasi). Natijada olingan natijalarning amaliy tatbiqi ingliz tili fanini o'qitishda hamkorlik strategiyalarini loyihalashning monitoring va metodik ta'minotini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy-usuliy ish, jumladan, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 10 ta maqola, shunda, 2 tasi xorijiy va 8 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, joriylanganligi, aprobatsiyasi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mazkur ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "**Ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi

bobida hamkorlikda o'rganish va o'qitish, uning shaxslararo muloqot, hamkorlik ko'nikmalariga ega avlodni shakllantiradigan, talabalarda o'qishga nisbatan qiziqishni uyg'otadigan hamda faol o'qitish imkoniyatini taqdim etadigan o'qitish texnologiyasi aniq nazariy va amaliy xarakterdagi misollar bilan tahlilga tortilgan.

Hamkorlikda o'qitishning nazariy asoslari bir qator taniqli pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, L.S.Vigotskiy ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asosida ta'lim jarayonida ijtimoiy muloqotning hal qiluvchi o'rnini asoslab bergan hamda "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surib, hamkorlikda o'rganishning metodologik poydevorini yaratgan. A.Bandura o'zining "ijtimoiy o'rganish nazariyasi" va keyinchalik "ijtimoiy kognitiv nazariya"si orqali o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'sir, modellashirish va kuzatuvchanlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ochib bergan. J.Piage "kognitiv rivojlanish nazariyasi" doirasida ta'limning faol va interaktiv xarakterini asoslagan va tadqiqotida hamkorlikdagi faoliyat orqali o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi jadallashishini ko'rsatib o'tgan. Guruhiy faoliyatni ilmiy jihatdan tadqiq etgan K.Levin "guruh dinamikasi nazariyasi"ni ishlab chiqib, shaxs rivojida guruh ichidagi o'zaro bog'liqlikning foydali tomonlarini ta'kidlagan. M.Deutsch esa, ushbu yondashuvni rivojlantirib, "hamkorlik va raqobat nazariyasi"ni yaratgan hamda ta'lim jarayonida hamkorlikning ijobiy ijtimoiy-psixologik samaralisini asoslab bergan.

Hamkorlikda o'qitish strategiyalari ta'lim muassasalarida ijodiy fikrlovchi, shaxslararo muloqot, hamkorlik ko'nikmalariga ega avlodni shakllantiradigan, talabalarda o'qishga nisbatan qiziqishni uyg'otadigan hamda faol o'qitish imkoniyatini taqdim etadigan o'qitish texnologiyasi sifatida so'nggi o'n yillikda keng tadqiq qilingan ta'lim strategiyasi hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarimiz davomida xorijiy tilni hamkorlik texnologiyalari asosida o'qitish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni 3 guruhga ajratdik:


1) hamkorlikda o'qitish strategiyalaridan foydalanishning natijalarini ko'rsatgan ilmiy tadqiqotlar;

2) hamkorlikda o'qitishni amaliy qo'llashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlarni tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlar;

3) hamkorlikda o'qitish strategiyalari to'g'risida o'qituvchilar va talabalarning qarashlari/munosabatlari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatning maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotlarning boshqarish mexanizmini yaratishdan iborat. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi xatti-harakatlari tizimini tushuniladi. Mazkur xatti-harakat o'qituvchining talabaga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadiki, bunda talabalarning faolligi asta-sekin o'sib boradi va jarayon butunlay ularning o'zlari boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi. Tabiiyki, o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabat sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Hamkorlikdagi ta'lim quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi (Qarang: 1-rasm):



“1-rasm”. Hamkorlikdagi ta’lim bosqichlari

Pedagogik adabiyotlarda ikkita o‘zaro juda o‘xshash atama ko‘rib chiqiladi: “kooperativ o‘qitish” va “kollobrativ o‘rganish”. E‘tibor berilsa, ba’zi soha adabiyotlarida ushbu tushunchalar aralashiriladi va ularning xususiyatlarini tavsiflashda noaniqliklarga yo‘l qo‘yiladi. Aksariyat hollarda tadqiqotchilar bu tushunchalarni qarama-qarshi qo‘yishadi yoki hamkorlikni amalga oshirish vositasi deb bilishadi. Shu o‘rinda “kooperativ” va “kollobrativ” atamalarining ta’riflarini tushinishga harakat qilamiz. Ko‘pincha, hamkorlik shaxslararo o‘zaro ta’sir shakli, mehnatni tashkil etish ko‘rinishi, jamoaviy harakat va boshqalar sifatida ta’riflanadi. Zotan, uning asosiy farqlovchi xususiyati “bir vaqtning o‘zida funksiyalar, rollar va boshqalarni taqsimlashda umumiy maqsadga erishish uchun ishtirokchilarning sa’y-harakatlari”ni birlashtirishdir (Qarang: 1- jadval):

1-jadval

Ta’limni hamkorlikda va kooperativ tashkil etishning asosiy farqlari

Xususiylıkları	Kooperativ o‘rganish (Cooperative Learning)	Hamkorlikda o‘rganish (Collaborative Learning)
epistemologik asos	Kognitiv nazariya – bilim o‘qituvchi tomonidan talabalarga yetkaziladi	Ijtimoiy konstruktivizm – bilim talabalar tomonidan birgalikda yaratiladi
tuzilishi	Aniq qoidalarga asoslangan, oldindan belgilangan tartib mavjud	Erkin, moslashuvchan va talabalar tomonidan shakllanadi
nazorati	O‘qituvchi asosiy yo‘naltiruvchi va baholovchi	O‘qituvchi ishtirokchi sifatida bilim izlash jarayonida
maqsadi	Talabalarni guruhda ishlashga o‘rgatish va bilimni mustahkamlash	Mustaqil fikrlashni rivojlantirish va yangi bilim yaratish

Hamkorlikdagi ta’lim umumiy maqsadga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayonini o‘z ichiga oladi, uning davomida fikr, bilim almashish va kelishuvga

erishish natijasida birgalikda qarorlar qabul qilinadi. Yuqoridagi tahlillar ko'rsatadiki, hamkorlikdagi o'rganish orqali bolalarni boshqalarning ilmiy yutuqlariga ko'maklashishga o'rgatish, bilim egallashda muvaffaqiyatga to'liq erishmagan bolalarda esa, motivatsiya yetishmasligini bartaraf etishga yordam berish, boshqalarga munosabatni barqarorlashtirish va bir-birlari bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirish mumkin.

Demak, hamkorlikdagi ta'lim raqobatbardosh yoki individual ta'lim usullariga qaraganda samarali natija va yuqori mahsuldorlikka erishishga yordam beradi va bu natijalar barcha fanlar, barcha yosh guruhlari va turli xil kognitiv jihatdan qiyin vazifalar uchun izchil sanaladi. Hamkorlik kuchaygan sari talabalar boshqa guruhlariga qarshi guruh sifatida raqobatlashganda ko'rpoq natijani qo'lga kiritishlarini kuzatamiz.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz tilini o'qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning metodik shart-sharoitlari tahlilga torildi va tilni o'qitish kontekstida hamkorlikda o'rganish strategiyalari kuchaygan motivatsiya, takomillashgan kommunikatsiya ko'nikmalari va yuqori til bilish darajalari bilan bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Ingliz tilini o'qitish metodikasida “kommunikativ didaktika”, “CLIL” metodlari sharhlandi, ushbu metodlar talabalarni hamkorlikda umumiy topshiriq yoki o'rganilayotgan faoliyat ustida ishlashini taqozo etadiki, talabalar guruhda ishlash natijasida o'quv materialini talab darajasida o'zlashtirishga erishishlari misollar asosida sharhlangan. Hamkorlikda o'qitish strategiyasi talaba bilan hamkorlik munosabatini hamda ijobiy emotsional qoniqish hosil qilishi, ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, muloqot va mehnat qilish ko'nikma va malakasini hosil qilishi, birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishonitirish hamda talabaga yordam berish g'oyasi ilgari surilgan. “Talaba-talaba” munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud:

1. Insonparvarlikka asoslangan yondashuv.
2. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi yondashuv.
3. Tarbiyaviy yondashuv.
4. Jamoaviy yondashuv.

Hamkorlikda o'qitish jarayonida o'qituvchining o'quv jarayonidagi mavqeyi ham o'zgaradi. Avvalo, uning mazkur jarayondagi roli yangicha ko'rinishga ega bo'ladi. Zero, o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri talabalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish mayllarini hosil qilishdan iborat. Hamkorlik qilish, maslahat berish asosida talabalarining o'quv-biluv faoliyatlarini boshqarish va muloqotga kirishish o'qituvchining birinchi darajali vazifalari sirasiga kiradi.

Talabalarga hamkorlik asosida ta'lim berishga muayyan shart sharoitlarni yaratish talab etiladi (Qarang: 2- rasm):



“2-rasm”. Hamkorlik asosida ta‘lim berishning shart-sharoitlari


Hamkorlik – juda keng qamrovli tushuncha, unda maktab, oila, mahalla, jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlari faol ishtirok etadi. Chunki hamkorlik jarayoni yoshlar kelajagining poydevorini mustahkamlaydi. Zotan, jamiyat har bir fuqaroning ta‘lim-tarbiya va bilim olishini ijtimoiy zarurat deb hisoblaydi. Ingliz tilini o‘qitish kontekstida hamkorlikda o‘rganish strategiyalari kuchaygan motivatsiya, barqarorlashgan kommunikatsiya ko‘nikmalari va yuqori til bilish darajalari bilan bog‘liq. Mazkur natijalar, talabalar tilni autentik va qo‘llab quvvatlovchi tarzda ishlatishga undaydigan hamkorlik va interaktiv o‘quv muhitining xarakteridan kelib chiqadi.

Oliy ta‘lim tizimida aralash ta‘lim deganda masofaviy ta‘lim texnologiyasi (onlayn) va internet ta‘lim integratsiyasi tushuniladi. Bunday model o‘quv materialini o‘rganish vaqtini, joyini, tezligi va usulini boshqarishga imkon beradi. Aralash ta‘lim o‘quv fanlarini o‘qitishda an‘anaviy usullar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirishga imkon beradi. Zotan, aralash ta‘lim texnologiyasi uchta asosiy tashkil etuvchi komponentdan iborat:

- masofaviy o‘qitish (Distance Learning);
- auditoriyada o‘qitish (Face-To-Face Learning);
- Internet tizimi orqali o‘qitish (Online Learning).

Ushbu tizimning komponentlari doimiy o‘zaro bog‘liqlikda ishlaydiki, bu jarayonni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini talab etadi. O‘quv fanlarini o‘qitishda eng maqbul natijalarga erishish tashkiliy va tarkibiy jihatlariga bog‘liq, chunki ta‘lim jarayonining barcha elementlari o‘zaro ta‘sirlashishi va bir butunni tashkil qilishi kerak (Qarang: 3- rasm).

Ingliz tilini o‘qitishda texnologiya integratsiyasi Google Classroom, Padlet yoki Microsoft Teams kabi hamkorlik onlayn platformalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu platformalar talabalarga loyihalar ustida birgalikda ishlash, resurslarni almashish va sinxron yoki real vaqtda muloqot qilish imkonini berib, hamkorlikda o‘rganishni osonlashtiradi. Ingliz tilini o‘qitish sozlamalarida, talabalarga boy, kontekstual va hamkorlikda til ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beruvchi simulyatsiya qilingan muhitlarni taqdim etishi mumkin bo‘lgan, immersiv va interaktiv til o‘rganish tajribalarini yaratish uchun potensial sifatida qo‘llash mumkin.




“3-rasm”. Ta'lim turlari

Smartfonlar va planshetlar keng tarqalgani tufayli, ingliz tilini o'qitishda mobil ilovalar va vositalar talabalarga muloqot qilish, umumiy jarayonga kirish va an'anaviy sinf muhitidan guruh vazifalarini bajarish imkonini hamda hamkorlikda o'rganishni qo'llab quvvatlash imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida hamkorlik strategiyalarini samarali loyihalash pedagogik va psixologik jihatdan keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta'limning interfaol yondashuvlari asosida hamkorlikni rivojlantirish talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi aksariyat olimlar tadqiqotlarida dalillangan. O'qituvchilar uchun esa, hamkorlik strategiyalarini to'g'ri loyihalash, turli yoshdagi va turli ta'lim darajasiga ega bo'lgan talabalarning ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini yaratadi. Psixologik nuqtayi nazardan hamkorlikda o'qitish motivatsiya va faolligini oshiradi, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ko'maklashadi. Shuningdek, hamkorlik faoliyatida ishtirok etish orqali talabalarning empatiya va yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa, ularning jamoada ishlash va kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Hamkorlikda o'qitish samarali ta'lim strategiyalaridan biri hisoblangan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishida bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar, ko'pincha, o'qituvchilarning yondashuvi, ta'lim resurslari va o'quv jarayonining monitoringi bilan bog'liq.

Hamkorlikda o'qitish strategiyalarini samarali amalga oshirish, aksariyat hollarda, o'qituvchilarning tajribasiga va ta'lim dasturlarining mavjud resurslariga bog'liq. Agar o'qituvchilar ushbu strategiyalarni to'liq tushunmasalar yoki dasturda zarur vositalar yetarli bo'lmasa, mazkur jarayon samaradorligi pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun, o'qituvchilarni mavjud yondashuvga tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Yana bir e'tiborli jihati shuki, ba'zi o'qituvchilar an'anaviy o'qitish usullariga o'rganib qolishganki, ularda nazoratni talabalar zimmasiga o'tkazishni talab qiladigan hamkorlikdagi yondashuvga o'tish qiyin kechishi mumkin. Bu esa, sinfda hamkorlikni tashkil qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Zero, o'qituvchilar uchun bu yangi rolni qabul qilishni o'rgatadigan treninglar tashkil etilishi zarurligini ta'kidlaymiz (Qarang: 4-rasm):



“4-rasm”. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning takomillashtirilgan modeli

Dissertatsiyaning “**Ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanidan hamkorlik strategiyalarini loyihalashning samaradorlik darajasi**” deb nomlangan uchinchi bobining asosiy maqsadi ingliz tili fanini o‘qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash bo‘yicha ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishi natijalari statistik tahlil qilindi. Matematik hisoblash qulay bo‘lishi uchun tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining ko‘rsatkichlari asos sifatida olindi (Qarang: 2-jadval):

2-jadval

Oliy ta’lim muassasalaridan tajriba-sinov ishida ishtirok etgan o‘qituvchi va talabalar soni

№	Ta’lim muassasasi nomi	Ishtirok etganlar soni	
		Talabalar	O‘qituvchilar
1	Buxoro davlat pedagogika instituti	177	10
2	Urganch davlat pedagogika instituti	181	7
3	Farg‘ona davlat universiteti	182	10
Jami:		540	27

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov oxirida keltirilgan qiymatlar o‘zaro taqqoslash bilan asoslandi. Olingan natijalarni matematik-statistik metodlardan foydalangan holda qayta tahlil qilish, tajriba hamda nazorat guruhi tajriba-sinovida ishtirok etgan talabalarning tajriba so‘ngidagi qiymatlari orasidagi farqni ko‘rsatish orqali tadqiqot samaradorligi aniqlandi. Aynan mana shu farqni ko‘rsatishda K.Pirsonning χ^2 (xi kvadrat) mezonidan foydalanildi. χ^2 (xi kvadrat) mezoniga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlarining talabalarining dastlabki bosqich yakuniy ko‘rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich natijalari o‘zaro qiyoslandi.


Ushbu qiyoslashni bajarishda H_0 gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlaridagi kuzatuv davrida baholash turlari bo‘yicha kutilayotgan ehtimollik teng deb olinadi. H_1 esa, muqobil gipotezada teng emas deb olindi. Ya’ni H_0 – tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov o‘tkazilgandan keyin talabalarning bilim darajalarida katta o‘zgarish sezilmaydi. H_1 – tajriba va nazorat guruhlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi.

Tanlangan guruhlarda “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda hamkorlik strategiyalaridan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlashda yozma topshiriqlar va testlardan foydalanildi hamda talabalarning bilim darajasining yakuniy tahlil natijalari quyidagicha keltirildi (Qarang: 3-jadval):

Talabalarning tajriba-sinov yakunidagi natijalari

Ta'lim muassasalari	Guruhlar	Talabalar soni	Baholar			
			"2"	"3"	"4"	"5"
Buxoro davlat pedagogika instituti	Tajriba	89	15	18	35	21
	Nazorat	88	27	27	24	10
Farg'ona davlat universiteti	Tajriba	91	16	19	37	19
	Nazorat	90	24	31	27	8
Urganch davlat pedagogika instituti	Tajriba	92	31	24	28	9
	Nazorat	90	31	28	24	7
Jami	Tajriba	272	62	61	100	49
	Nazorat	268	82	86	75	25

Tajriba va nazorat guruhlaridagi umumlashtirilgan o'zlashtirish natijalari



"5-rasm". Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba natijalari diagrammasi

Ma'lumki dispersiyalangan normal taqsimot holatida berilgan tasodifiy x va y bilan tasodifiy o'zgaruvchining matematik kutilishi M_x va N_y ni baholash uchun ishonch oralig'i tengsizliklar asosida aniqlanadi:

$$\bar{x} - \frac{t_\alpha \cdot S_x}{\sqrt{M}} \leq a_x = M_x \leq \bar{x} + \frac{t_\alpha \cdot S_x}{\sqrt{M}}$$

$$\bar{y} - \frac{t_\alpha \cdot S_y}{\sqrt{N}} \leq a_y = N_y \leq \bar{y} + \frac{t_\alpha \cdot S_y}{\sqrt{N}}$$

Bu yerda: t – ishonch koeffitsiyenti. Nazariy o'rta qiymatlarni 95% lik ishonch oraliqlarini quyida berilgan standart usulda topamiz. γ – bahoning

ishonchliligi yoki ishonch darajasi. Ishonch darajasi, odatda, 0,9; 0,95; 0,99 yoki 0,999 qiymatlardan birini qabul qiladi.

$$3,5 - \frac{1,96 \cdot \sqrt{1,06}}{\sqrt{272}} \leq a_x \leq 3,5 + \frac{1,96 \cdot \sqrt{1,06}}{\sqrt{272}}$$

$$3,2 - \frac{1,96 \cdot \sqrt{0,93}}{\sqrt{268}} \leq a_y \leq 3,2 + \frac{1,96 \cdot \sqrt{0,93}}{\sqrt{268}}$$

$$3,37 \leq a_x \leq 3,62$$

$$3,04 \leq a_y \leq 3,27$$

Demak, $a_x > a_y$ tengsizlik o'rinli ekanligi kelib chiqdi, ya'ni tajriba va nazorat guruhlariga mos nazariy o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'zaro kesishmaydigan oraliqda ekanligi ma'lum bo'ldi. Yuqorida aniqlangan tajriba va nazorat guruhlari baholarining o'rta arifmetik qiymatlari nisbatidan kelib chiqib, samaradorlik koeffitsiyenti hisoblandi (Qarang: 4-jadval):

4-jadval

Tanlangan OTM larda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlilining umumiy natijasi

	Tajriba guruhi M=272				Nazorat guruhi N=268			
Baho qiymati	2	3	4	5	2	3	4	5
Mos baholar soni	62	61	100	49	82	86	75	25
Baholarning o'rta arifmetik qiymati	$\bar{x} = 3,5$				$\bar{y} = 3,2$			
Samaradorlik koeffitsiyenti	$\eta = \bar{x}/\bar{y}, \quad \eta = 1,11$							
Ishonchlilik ehtimoli oralig'i	$3,37 \leq a_x \leq 3,62$				$3,04 \leq a_y \leq 3,27$			

Pedagogik tajriba-sinovlarining yakuniy bosqichida aniqlangan natijalar samaradorligi ko'rsatkichi 1,11 % ekanligi aniqlandi.

XULOSA

1. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash muammosi pedagogik-psixologik adabiyotlarda fikrni baholovchi, til o'rganishga bo'lgan munosabatni maqsadli tarbiyalash, hamkorlikda o'qitish jarayonini takomillashtirish asosida keng doirada tahlil qilinsa-da, mazkur tadqiqot mavzusi aynan monografik planda o'rganilmagan. Zero, ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashdan maqsad, avvalo,

shaxsning rivojlanishi, ijodiy salohiyatining bosqichma-bosqich boyitilishi, uning til bilish qobiliyatlarining doimiy o'sishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

2. Hamkorlik strategiyalarni ingliz tili darslarida muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradigan muloqot vositalari va shaxslararo o'zaro ta'siri qonuniyatlari sohasida bilim hamda ko'nikmalar yig'indisi ekanligidan kelib chiqib, talabaning kasbiy faoliyati uchun ahamiyatli jihat sifatida uning hamkorlik aloqalarini o'rnatilishiga, muammoni konstruktiv yecha olish vositasi sifatida ko'rsatish imkonini berdi.

3. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashning quyidagi pedagogik sharoitlari aniqlandi: 1) talabalarda til bilish kompetensiyasi ustuvor bo'lib, shaxslararo yo'naltirilgan; 2) *o'qituvchi-talaba, talaba-talaba, o'qituvchi-talaba-o'qituvchi, talaba-o'qituvchi-talaba* orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini yaratish uchun o'quv jarayonida kreativlik muhiti vujudga keladi; 3) talabalar faoliyati muayyan tartib asosida tashkil etiladi; 4) talabalar jamoasi orasida o'zaro samimiy, do'stona muhitni vujudga keltirishga yo'naltirilgan texnologiyalar qo'llaniladi.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik soha muhim rol o'ynaydi. O'qitish qonuniyatlarining didaktik tamoyillarda chuqur va aniq aks etishi pedagogika va u bilan integratsiyalanadigan fanlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

4. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashda o'qitish texnologiyasidan unumli foydalanish talabalarni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga o'rgatadi, talabalar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam, fikr almashish jarayoni vujudga keltiriladi.

5. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash texnologiyasidan foydalanish har bir talabani qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, o'qishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va qunt bilan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga va o'zaro hamkor bo'lib, o'zaro yordam berishga zamin hozirlaydi.

6. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashdan foydalanishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki talabalarni hamkorlikda o'qishga, ishlashga o'rgatish, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini, o'zaro yordam va fikr almashtiruvini vujudga keltirish hisoblanadi.

7. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari kommunikativ yondashuv, tilga bog'liq fanlararo integratsiya va motivatsiyani aniqlashga mo'ljallangan "Collaborative Learning Techniques", "Kichik guruhlarda ishlash", "Zigzag", ijodiy izlanishni tashkil qilishga qaratilgan "Belgilar orqali muhokama", "Jamoaviy o'yinlar musobaqasi" kabi interfaol metodlardan foydalanish uchun o'qituvchi har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv

topshiriqlarini tuzishi va o'z o'rnida foydalanish yo'llarni aniq belgilashi ta'lim sifatini keskin oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

8. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish metodikasini axborot va pedagogik texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish, loyihalash kabi innovatsion texnologiyalar hamda interaktiv ta'lim vositalari(interaktiv doska, audiovizual vositalar, elektron darsliklar, multimediyalar)dan foydalangan holda o'qitish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

9. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan tajriba-sinov natijalari talabalarda ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashdan samarali foydalanish jarayonini muayyan reja va dasturga, aniq pedagogik shart-sharoitlarga tayangan holda olib borilishi zarurligini tasdiqladi. Bu esa, tajriba sinovini tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari asosida amaliyotga joriy etishga qaratilgan quyidagi taklif va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida hamkorlik strategiyalarni loyihalash texnologiyalaridan foydalanishda ingliz tilini o'qitish metodikasi va boshqa mutaxassislik fanlari integratsiyasini kuchaytirish.

2. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ingliz tili fanini o'qitish metodikasidan o'quv reja va dasturlarni transformatsiya qilish hamda hamkorlik strategiyalarni loyihalashdan foydalanish orqali zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni takomillashtirish.

3. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashni takomillashtirish maqsadida multimediyali vositalarni tashkil etish orqali talaba-o'qituvchi hamkorligining axborot texnologiyalariga asoslangan platforma yaratish.

4. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish metodikasini hamkorlik strategiyalari asosida loyihalash texnologiyasidan foydalanish maqsadida ingliz tilidan o'rganishga qaratilgan qisqa va o'rta muddatli masofaviy o'quv kurslari, seminar va treninglarni tizimli tashkil qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

АШУРОВА ДИЛДОРА ГАФУРОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ МЕТОДИКИ
ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ
СТРАТЕГИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание учёной степени доктора (PhD)
педагогических наук**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) педагогических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/Ped6311.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Олимов Ширинбой Шарофович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рашидова Феруза Мусаевна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Содиков Эркин Турсунович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Гулистанский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится 5 марта 2026 года в 09.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, улица, М.Икбола, дом 11. Тел.: (0 365) 221-29-14; факс: (0 365) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под №825). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбола, дом 11. Тел.: (0 365) 221-29-14).

Автореферат диссертации разослан 20 февраля 2026 года.

Протокол реестра рассылки № 18 от 20 февраля 2026 года.



Н.Б. Атабоев
Председатель Научного Совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.н., (DSc),
профессор

Я.Б.Рузиев
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.н., (DSc),
доцент

З.И. Расулов
Заместитель Председателя Научного
семинара при Научном Совете по
присуждению учёных степеней, д.ф.н. (DSc),
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В исследованиях, проводимых в мировом масштабе, важную роль играет разработка стратегии обучения и воспитания, освоение содержания образования, проектирование и реализация стратегий сотрудничества в процессе обучения. В частности, в таких развитых странах, как США, Англия, Россия, Германия, Индия и Корея, особое значение приобретают научные исследования, направленные на свободное общение на иностранных языках в своих профессиональных областях, преподавание английского языка с учётом стратегий сотрудничества, развитие коммуникативных знаний студентов по английскому языку и улучшение речевых навыков.

Особое значение имеет то, что в мировом масштабе проводятся научные исследования по проблемам преподавания иностранных языков в высших учебных заведениях, таких как университеты Миннесоты (University of Minnesota), Албани (the University at Albany), Кембриджа (University of Cambridge), Джорджии (Georgia State University) и Алжира. Исследования направлены на совершенствование методов и стратегий изучения языка в высших учебных заведениях, дальнейшее улучшение междисциплинарных связей в методике преподавания английского языка для специальных целей в Санкт-Петербургском государственном университете и Томском национальном исследовательском университете, а также на внедрение методов изучения английского языка, основанных на развитии сотрудничества между студентами. Одним из ведущих научных центров в области теории и практики совместного обучения является Центр кооперативного обучения университета Миннесоты, который сыграл важную роль в формировании и развитии этого направления.

В нашей стране происходит процесс формирования новой системы образования, нацеленной на интеграцию в мировое образовательное пространство. Ключевым аспектом этих процессов является личностно-ориентированное обучение. При этом важно, чтобы все обучающиеся овладели навыками общения и сотрудничества. В связи с этим существенное значение имеет внедрение современных стандартов преподавания языков в высших учебных заведениях, повышение эффективности применения форм, методов и средств совершенствования содержания образования при разработке стратегий сотрудничества в преподавании английского языка.

Одной из первоочередных стратегических целей, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11 сентября 2023 года “О стратегии “Узбекистан-2030”, является направление “Создание достойных условий для реализации потенциала каждого человека”, которое служит важной основой для реформ в сфере образования. Данное направление неразрывно связано с задачами, установленными в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 от 5 июня 2018 года “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, Указе Президента Республики

Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года “О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4623 от 27 февраля 2020 года “О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования” и Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков”. Настоящая диссертация в определённой степени способствует реализации задач, обозначенных в этих нормативно-правовых документах.

